

**TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVIY TADQIQOTLAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSs.25/30.12.2019.Qx/B.43.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVIY TADQIQOTLAR
INSTITUTI**

JURAYEV SHUXRAT ABDUNABI O‘G‘LI

**CHIRCHIQ DARYOSI HAVZASI ASOSIY TUPROQLARI, ULARNING
FOSFORLI HOLATINI YAXSHILASHNING ILMIY ASOSLARI**

03.00.13 – «Tuproqshunoslik»

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
биологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
biological sciences**

Jurayev Shuxrat Abdunabi o‘g‘li

Chirchiq daryosi havzasi asosiy tuproqlari, ularning fosforli holatini yaxshilashning ilmiy asoslari 5

Жураев Шухрат Абдунаби угли

Основные почвы бассейна р.Чирчик, научные основы улучшения их фосфорного состояния 21

Juraev Shuhrat Abdunabi ugli

The main soils of the Chirchik river basin, the scientific basis for improving their phosphorus state 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

**TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVIY TADQIQOTLAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSs.25/30.12.2019.Qx/B.43.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVIY TADQIQOTLAR
INSTITUTI**

JURAYEV SHUXRAT ABDUNABI O‘G‘LI

**CHIRCHIQ DARYOSI HAVZASI ASOSIY TUPROQLARI, ULARNING
FOSFORLI HOLATINI YAXSHILASHNING ILMIY ASOSLARI**

03.00.13 – «Tuproqshunoslik»

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/1574 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Dissertatsiyasi avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) veb-sahifasida (<http://www.soil.uz>) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (<http://www.ziyounet.uz>) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Abduraymonov Nodirjon Yulchiyevich biologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Toshqo'zlev Maruf Mausurovich biologiya fanlari doktori, professor Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti Ranpova Nodira Bahromovna biologiya fanlari doktori, professor Toshkent davlat Agrar universiteti
Yetakchi tashkilot:	Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.25/30.12.2019.Qx/B.43.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «21» 06 soat 10:00da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika M.F.Y., O'zPITI ko'chasi, TATI. Tel.: (+99878) 150-62-84; faks: (99871) 150-61-37; e-mail: info@soil.uz)

Dissertatsiya bilan Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (22 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika M.F.Y., O'zPITI ko'chasi, TATI. Tel.: (+99878) 150-62-84; faks: (99871) 150-61-37; e-mail: info@soil.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «05» 06 kuni tarqatildi.

(2023 yil «05» 06 № 4-raqamli bayonnomasi)



Sh.M.Bobomurodov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, b.f.d., katta ilmiy xodim

J.M.Ko'ziev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, q.x.f.d., katta ilmiy xodim

B.I.Niyozaliev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar majlisi raisi, q.x.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda «dunyoda qayta tiklanmaydigan resurs hisoblanadigan fosfor konlaridan olinadigan mineral fosforli oʻgʻitlarning kelajakda yetishmasligi natijasida qishloq xoʻjaligi tuproqlarida fosfor yiliga 4-19 kg/ga darajasida kamayishi, bunda suv eroziyasi sababli oʻrtacha yoʻqotish fosforni umumiy yoʻqotishning 50 foizdan ortigʻini tashkil qilishi bashorat qilinmoqda»¹. Shu sababli, dunyoning barcha mamlakatlarida, jumladan mamlakatimizda ham qishloq xoʻjaligida global muammolardan biri boʻlgan tuproqda fosforning kuchli fiksatsiyasi taʼsirida oʻsimliklar oʻzlashtiradigan fosforning kamayishi va ekinlar hosildorligining pasayishi muammolarini yechish muhim ahamiyatga egadir.

Dunyoda tuproqlarning xossa-xususiyatlarini yaxshilash, tuproq tarkibidagi oziqa moddalaridan foydalanish samaradorligini oshirish, qishloq xoʻjaligi ekinlarini oziqa elementlariga boʻlgan talabini qondirish, tuproqlar unumdorligini saqlash, qayta tiklash va oshirish hamda yerlardan samarali foydalanishni yoʻlga qoʻyish boʻyicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, zamonaviy uslublar asosida tabiiy va dehqonchilik yuritiladigan tuproqlar fosforli holatini, uning tabiiy omillar va dehqonchilik taʼsirida oʻzgarishlarini aniqlash, tuproq fosforli holatini samarali boshqarishga doir ilmiy-tadqiqotlarga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

Respublikamizda sugʻoriladigan va lalmikor tuproqlarning hozirgi holatini aniqlash, turli dehqonchilik tizimlari taʼsirida asosiy oziqa elementlarining tuproqda transformatsiyasi jarayonlarini va oziqa rejimini oʻrganish, tuproq unumdorligini saqlash, oshirish va muhofaza qilish hamda ulardan samarali foydalanish boʻyicha ilmiy-tadqiqotlar olib borilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022–2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasida «Qishloq xoʻjaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xoʻjaligining yillik oʻsishini kamida 5 foizga yetkazish» maqsad qilib olingan boʻlib, mazkur maqsadga erishish uchun «Tuproq unumdorligini oshirish va muhofaza qilish»² asosiy ustuvor yoʻnalishlardan biri sifatida belgilab berilgan. Shuning uchun ham turli tuproq-iqlim sharoitlarida rivojlangan tuproqlarda kechayotgan jarayonlarni har tomonlama oʻrganish orqali tuproq unumdorligigiga salbiy taʼsir etuvchi degradatsiya jarayonlarining oldini olish yoki yumshatishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi PF-5742-son «Qishloq xoʻjaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi Farmoni, 2022 yil 10 iyundagi PQ-277-son «Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ <https://agupubs.onlinelibrary.wiley.com/doi/full/10.1029/2009GB003576>

² Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022–2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida»gi Farmoni

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V «Qishloq xoʻjaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof muhitni muhofazasi» ustuvor yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Oxirgi yillarda Chirchiq daryosi havzasi asosiy tuproqlarini oʻrganish, ularda kechayotgan degradatsiya jarayonlarini aniqlash va oldini olishga doir keng qamrovli ilmiy-tadqiqotlar R.Qoʻziev, M.M.Toshqoʻziev, L.A.Gafurova, G.Yuldashev, R.Qurvantoev, A.J.Boirov, Sh.M.Bobomurodov, N.Yu.Abduraxmonov, N.B.Raupova, M.T.Isagʻaliev, G.T.Djalilova, G.M.Nabieva, D.A.Qodirova, N.I.Shadieva, Gʻ.T.Parpiiev, M.F.Faxrutdinova va boshqalar tomonidan olib borilgan. Tuproqlarning fosforli holatini yaxshilashga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari xorijda J.K.Syers, L.Gatiboni, P.Haygarth, E.Hou, J.Niederberger, T.Mardamootoo, G.C.Marlon, K.E.Ginzburg, T.N.Kulakovskaya, R.E. Eleshev, L.V.Stepansova, respublikamizda S.A.Kudrin, B.P.Machigin, N.L.Zglinskaya, M.M.Toshqoʻziev va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan. Lekin, respublikamiz tuproqlari fosfatlarining fraksiyaviy tarkibini aniqlash, jumladan vertikal mintaqaviylikning asosiy tuproqlari fosfatlarining fraksiyaviy tarkibi va ularning tabiiy va antropogen omillar taʼsirida oʻzgarishi boʻyicha ilmiy-tadqiqotlar yetarlicha amalga oshirilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasaning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining A7-019 «Chirchiq daryosi havzasi asosiy tuproqlarida azotning mineral va organik birikmalari tarkibining dehqonchilik taʼsirida sifat va miqdoriy oʻzgarishlarini oʻrganish asosida azot fondini boshqarish yoʻllarini ishlab chiqish» (2012-2014 yy.), BV-A-QX-2018-163 «Pskom-Chotqol-Qurama togʻ oldi va osti hududlari tuproq resurslarining ekologik-genetik xususiyatlarini aniqlash asosida ulardan samarali foydalanish boʻyicha tavsiyalar ishlab chiqish» (2018-2020 yy.) hamda PZ-202011266 «Fosfor adsorbsiyasi izotermik modellari asosida tuproqlarning fosfor taʼminotini yaxshilash texnologiyasini yaratish» (2021-2024 yy.) mavzularidagi amaliy loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Chirchiq daryosi havzasi asosiy tuproqlarining xossa va xususiyatlarini, fosfatlarining fraksiyaviy tarkibini va ularga tabiiy va antropogen omillarning taʼsirini aniqlash asosida tuproqlar fosforli holatini yaxshilashning ilmiy asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Chirchiq daryosi havzasi asosiy avtomorf va gidromorf tuproqlarining hozirgi kundagi holatini aniqlash;

havza asosiy tuproqlari mineral fosfatlarining fraksiyaviy tarkibini Ginzburg-Lebedeva uslubida aniqlash;

jigar rang hamda boʻz tuproqlar mintaqasi avtomorf va gidromorf tuproqlari noorganik va organik fosfatlari fraksiyaviy tarkibini Hedley uslubida aniqlash;

havza asosiy tuproqlari fosfatlari fraksiyaviy tarkibining tabiiy va antropogen omillar taʼsirida oʻzgarishlarini hamda tuproqlar fosfor zahiralari aniqlash;

sugʻoriladigan tipik boʻz tuproqlarda fosfor adsorbsiyasini oʻrganish;
tanlangan xoʻjaliklar tuproqlarining fosfor adsorbsiyasi, gumus, harakatchan fosfor va almashinuvchi kaliy bilan taʼminlanganlik kartogrammalarini tuzish;
tadqiqotlar natijalari asosida tuproqlarning fosforli holatini yaxshilashning ilmiy asoslarini ishlab chiqish va amaliy tavsiyalar tayyorlash.

Tadqiqotning obʻekti Toshkent viloyatini Chirchiq daryosi havzasining jigarrang, toʻq tusli (qoʻriq va lalmi) va tipik boʻz (lalmikor, sugʻoriladigan) hamda sugʻoriladigan boʻz-oʻtloqi va oʻtloqi tuproqlari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti tuproqlarning xossa-xususiyatlari, fosfatlarining fraksiyaviy tarkibi, ularning tabiiy va antropogen omillar taʼsirida oʻzgarishlari, tuproqlar fosfor zahiralari hamda sugʻoriladigan tuproqlarda fosfor adsorbsiyasini aniqlash hisoblanadi.

Tadqiqotning uslublari. Tadqiqotlarda geografik-qiyosiy, kimyoviy-analitik hamda kesma uslublardan foydalanilgan, tuproq namunalari tahlillari «Agroximicheskie metodi issledovaniya pochv»da bayon etilgan uslublarda, fosforning mineral fraksiyalari Ginzburg-Lebedeva uslubida, noorganik va organik fraksiyalari Hedley uslubida, fosfor adsorbsiyasi Nair uslubida aniqlangan, olingan maʼlumotlarning matematik-statistik tahlili «Microsoft Excel» dasturi yordamida B.A.Dospexov uslubi asosida bajarilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Chirchiq daryosi havzasi asosiy tuproqlarining rivojlanish sharoitlari va gidrotermik rejimining ular tarkibidagi fosfor zahiralari va tuproq fosfatlari fraksiyalari miqdoriga taʼsiri aniqlangan;

Hedley (respublikamizda ilk bor) va Ginzburg-Lebedeva uslublarida havza asosiy tuproqlari fosfatlari fraksiyaviy tarkibi hamda ularning tabiiy va antropogen omillar taʼsirida oʻzgarishlari aniqlangan;

havza asosiy tuproqlari fosfatlari labil va stabil fraksiyalari tarkibidagi noorganik va organik fosfatlar miqdori aniqlangan hamda ularning oʻsimliklar tomonidan oʻzlashtirilish darajasi baholangan;

Nair uslubida sugʻoriladigan tipik boʻz tuproqlarda fosforning adsorbsiyasi koʻrsatgichlari aniqlangan;

havza asosiy avtomorf va gidromorf tuproqlarining hozirgi kundagi fosforli holati baholangan va ularning fosforli holatini yaxshilashning ilmiy asoslari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sugʻoriladigan tipik boʻz tuproqlarda ekinlar oziqa rejimini yaxshilashga qaratilgan tuproqlarning gumus, harakatchan fosfor va almashinuvchi kaliy bilan taʼminlanganlik kartogrammalari tuzilgan;

sugʻoriladigan tuproqlarning ekinlarni fosfor bilan taʼminlash qobiliyatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni belgilash uchun kalit maydonlardagi fermer xoʻjaliklari yer maydonlarining «Tuproqlarda fosfor adsorbsiyasi» xaritalari ishlab chiqilgan;

tuproqlarning fosforli holatini yaxshilashga qaratilgan «Tuproqda ekinlarning hosildorligi, tuproq unumdorligi va ekologik xavfsizlikni taʼminlovchi fosforning maqbul miqdorini hosil qilish boʻyicha tavsiyalar» ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotlarda dala, laboratoriya, kameral va boshqa qabul qilingan standart uslublardan foydalanilganligi, olingan natijalarni matematik-statistik tahlillardan o'tkazilganligi, nazariy va amaliy natijalarning bir-biriga mos kelishi, tadqiqot natijalari xalqaro va mahalliy ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilinganligi, ularni amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalar va xulosalarning ilmiy asoslanganligi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda chop etilganligi natijalarning ishonchliligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Chirchiq daryosi havzasi asosiy tuproqlari noorganik va organik fosfatlarining fraksiyaviy tarkibi va ularning tabiiy va antropogen omillar ta'sirida o'zgarishlari respublikamizda ilk bor Hedley uslubida aniqlanganligi va shu asosda havzaning asosiy avtomorf va gidromorf tuproqlarining hozirgi kundagi fosfatli holati baholanganligi hamda sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarda fosfor adsorbsiyasi aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, havza tuproqlarining xossa va xususiyatlari, noorganik va organik fosfatlarining labil va stabil shakllari hamda sug'oriladigan tuproqlarda fosfor adsorbsiyasi to'g'risidagi ma'lumotlar ushbu tuproqlar fosforli holatini yaxshilash chora-tadbirlarini belgilashda, tuproqlarning fosfor adsorbsiyasi, gumus, harakatchan fosfor va almashinuvchi kaliy bilan ta'minlanganlik kartogrammalari hamda tuproqlarning fosforli holatini yaxshilashga qaratilgan amaliy tavsiyalar tuproqlar unumdorligini saqlash va oshirishda hamda qishloq xo'jaligi ekinlaridan rejalashtirilgan hosilni olishda ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Chirchiq daryosi havzasi asosiy tuproqlarining fosforli holatini yaxshilashning ilmiy asoslarini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalari asosida:

«Tuproqda ekinlarning hosildorligi, tuproq unumdorligi va ekologik xavfsizlikni ta'minlovchi fosforning maqbul miqdorini hosil qilish bo'yicha tavsiyalar» Toshkent viloyatida amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2022 yil 20 dekabrda 04/28-9585-son ma'lumotnomasi). Natijada, Chirchiq daryosi havzasi qo'riq, lalmi va sug'oriladigan tuproqlari unumdorligini saqlash va oshirish hamda fosforli holatini yaxshilash bo'yicha choralar belgilashda qo'llanma sifatida xizmat qilgan;

Bo'ka tumanidagi «Mirzaqul, Qarshiboy, Kozimjon», «Zukko Zumrad», «Xayitboev Shavkat», «Xolmurod Jamshid» fermer xo'jaliklarining jami 109,0 gektar yer maydonlari bo'yicha «Tuproqlarda fosfor adsorbsiyasi» xaritalari tuzilgan va amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2022 yil 20 dekabrda 04/28-9585-son ma'lumotnomasi). Natijada, fermer xo'jaliklari sug'oriladigan tuproqlarida fosforli o'g'itlar samaradorligini hamda ekinlar hosildorligini oshirish imkonini bergan;

«Tuproqlarning gumus, harakatchan fosfor va almashinuvchi kaliy bilan ta'minlanganlik» kartogrammalari tuzilgan va Toshkent viloyati Bo'ka tumanidagi «Mirzaqul, Qarshiboy, Kozimjon», «Zukko Zumrad», «Xayitboev Shavkat»,

«Xolmurod Jamshid» fermer xo'jaliklarining jami 109,0 gektar yer maydonida amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2022 yil 20 dekabrda 04/28-9585-son ma'lumotnomasi). Natijada eskidan sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar sharoitida g'oz va kuzgi bug'doy hosildorligini oshirish bilan bir paytda tuproqda gumus va asosiy oziqa elementlari ta'minotini yaxshilashga, shuningdek, o'rta hisobda paxtadan 3,5- 4,0 s/ga, kuzgi bug'doydan 5,2-6,3 s/ga qo'shimcha hosil olish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari jami 11 ta, jumladan 8 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan hamda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 21 ta ilmiy ishlar, jumladan 1 ta monografiya, 1 ta tavsiyanoma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, shundan 1 tasi xorijiy nashrlarda va 7 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 5 bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 113 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalari, ob'ektlari va predmetlari tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **Chirchiq daryosi havzasi asosiy tuproqlarining hozirgi holati va tuproq fosfori muammolarining o'rganilganligi** deb nomlangan birinchi bobida respublikamiz vertikal mintaqalari tuproqlarining hamda tuproq fosfori muammolarining xorijda va mamlakatimizda o'rganilgan holati tahlil qilinib, havza asosiy tuproqlarining hozirgi kundagi holatiga bog'liq ravishda tuproq fosfatlarining shakllarini va ularning tabiiy va antropogen omillar ta'sirida o'zgarishlarini aniqlash asosida tuproqlarning fosforli holatini yaxshilashning ilmiy asoslarini ishlab chiqish zarurati asoslangan.

Dissertatsiyaning **tadqiqot ob'ektlari va uslublari** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotning ob'ektlari, marshrutli geografik qiyosiy tadqiqotlar hamda tuproq namunalarining kimyoviy tahlillari uslublari keltirilib, tadqiqotlar 2 bosqichda o'tkazilganligi bayon qilingan.

Birinchi bosqichida (2012-2016 yy.) havza tuproqlarining asosiy xossa va xususiyatlari hamda ular fosfatlarining tabiiy va antropogen omillar ta'sirida o'zgarishlari Ginzburg-Lebedeva uslubida, *ikkinchi bosqichida* (2020-2022 yy.) esa yangi marshrutli qiyosiy geografik tadqiqotlar asosida Hedley uslubida aniqlangan.

Dissertatsiyaning **tadqiqot hududining tabiiy sharoitlari** deb nomlangan uchinchi bobida tadqiqotlar hududining tabiiy-iqlimiy sharoitlari, geomorfologik rayonlari, gidrogeologik sharoitlari, o‘simlik qoplamlari va tuproqlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **Chirchiq daryosi havzasi asosiy tuproqlarining hozirgi holati** deb nomlangan to‘rtchi bobi besh paragrafdan iborat.

Jigar rang tuproqlar deb nomlangan paragrafida jigarrang tuproqlarning mexanik tarkibi og‘ir qumog‘ligi, muhiti (pH) kuchsiz ishqoriy, suvli so‘rimining solishtirma elektr o‘tkazuvchanligi kuchsiz bo‘lib, shimoliy qiyalikda rivojlangan tuproqlarda karbonatlar janubiy qiyalikka nisbatan kuchli yuvilganligi, shimoliy qiyalikda gumusli qatlam qalinligi, umumiy gumus va azot miqdorlari janubiy qiyalikdagidan ko‘pligi, ular asosan yuqori gorizontlarda to‘planib, kesma bo‘ylab quyi tomon kamayishi, tuproq kesmasida fosfor va kaliyning taqsimlanishi keltirilgan.

To‘q tusli bo‘z tuproqlar deb nomlangan paragrafida bu tuproqlarning mexanik tarkibida fizik loy miqdori kesma bo‘ylab 43,7-50,1 %, o‘rta qismida loylanish jarayoni kuzatilishi va il fraksiyasining ko‘proq to‘planishi, suvda oson eruvchi tuzlar yuvilganligi ko‘rsatilgan. Karbonatlar (CO₂) miqdori chim va chim osti gorizontlarida 6,6-6,86 %, quyi gorizontlarda 9,49-11,96 % ni tashkil etib, kesmaning o‘rta qismida karbonatli-illyuvial gorizont hosil bo‘lgan. Muhiti kuchsiz ishqoriy - pH 7,70-7,78. Qo‘riq tuproqlarning chimli va chim osti gorizontlarida gumus miqdori, tegishlicha, 4,54 va 2,76 % bo‘lib, quyi gorizontlarda 1,35 dan 0,43 % gacha, umumiy azot miqdori esa chim va chim osti gorizontlarida, tegishlicha, 0,268 va 0,158%, quyi gorizontlarda 0,104 dan 0,040 % gacha kamaygan. Umumiy fosfor miqdori yuqori gorizontlarda quyi gorizontlarga nisbatan ko‘p. Umumiy kaliy miqdori chim va chim osti gorizontlarida, mos ravishda, 2,51 va 1,94 %, quyida 0,7 % gacha kamayadi.

Sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlar deb nomlangan paragrafida *yangidan sug‘oriladigan* tipik bo‘z tuproqlarning mexanik tarkibi haydov gorizontida o‘rta qumoq (fizik loy 42,1%), kesmaning o‘rta qismida og‘irlashib 50,1% ni tashkil etishi ko‘rsatilgan. Suvli so‘rimning elektr o‘tkazuvchanligi 0,11-0,14 mS/sm. Muhiti kuchsiz ishqoriy (pH 7,49-7,67). Karbonatlarning eng kam miqdori haydov gorizontida 7,04%, haydov osti gorizontida esa 7,45%, quyi gorizontlarda 8,75-9,4%.

Gumus miqdori haydov gorizontida 1,08%, haydov osti gorizontida 0,81%, quyi gorizontlarda 0,62-0,39%. Azotning umumiy miqdori haydov va haydov osti gorizontlarida, tegishlicha, 0,078 va 0,068 %. Kaliyning umumiy miqdori haydov gorizontlarda 2,0%, haydov osti gorizontida esa 1,93% bo‘lib, kesma bo‘ylab quyi tomon kamaygan.

Eskidan sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlarning mexanik tarkibi Qibray tumanida og‘ir qumoq bo‘lib, haydov qatlamida fizik loy miqdori 45,3 %, quyi gorizontlarda 50,1-50,9 %. Zangiota va Yangi yo‘l tumanlari tuproqlarida fizik loy miqdori haydov gorizontlarida, tegishlicha, 39,8 va 35,0 %. Quyi gorizontlarida fizik loy miqdori 31,8-41,3 % oralig‘ida.

Suvli soʻrimning solishtirma elektr oʻtkazuvchanligi 0,10-0,14 mS/sm. Karbonatlarning eng kam miqdori (7,26-7,85%) haydov gorizontlariga, eng koʻp miqdori 10 % atrofida boʻlib, kesmalarining oʻrta qismiga tegishli.

Tuproqlarning haydov gorizontida gumus miqdori Qibray tumanida 1,65% ni, eng kam miqdori (0,81 %) esa Yangi yoʻl tumanida kuzatilib, Zangiota tumani tuprogʻida 1,22%. Umumiy azot miqdori Qibray tumani tuprogʻining haydov gorizontida 0,146%, Zangiota tumanida 0,102%, Yangi yoʻl tumanida 0,075% boʻlib, kesma boʻylab quyi tomon kamayib boradi. Umumiy kaliy miqdori Qibray, Zangiota va Yangi yoʻl tumanlari tuproqlari haydov gorizontida, tegishlicha, 1,77; 1,80 va 1,99% boʻlib, quyida kamayadi.

Eskidan sugʻoriladigan oʻtloqi tuproqlar deb nomlangan paragrafida Yuqorichirchiq tumani tuprogʻini haydov gorizontining mexanik tarkibi oʻrta qumoq, quyida asosan ogʻir qumolardan iborat ekanligi, Oʻrtachirchiq tumani tuprogʻida fizik loy miqdori 29%, quyi gorizontlarida 28% dan 10% gacha kamayishi, Quyichirchiq tumani tuprogʻi yengil qumolardan (fizik loy 24-25%) iborat qisqa mayin qatlamga (45 sm) egaligi, quyida shagʻal qatlami joylashganligi, Chinoz tumani tuprogʻini haydov va haydov osti gorizontida fizik loy miqdori 34-35% boʻlib, quyida 27% dan 8 % gacha kamayishi koʻrsatilgan. Suvli soʻrimining solishtirma elektr oʻtkazuvchanligi 0,12-0,22 mS/sm, muhiti kuchsiz ishqoriy (pH 7,57-7,81).

Yuqorichirchiq tumani tuprogʻi haydov va haydov osti gorizontlarida karbonatlar miqdori, tegishlicha, 6,59 va 6,57%, quyi gorizontlarida 9,35-10,15%. Oʻrtachirchiq, Quyichirchiq va Chinoz tumanlari tuproqlarida karbonatlar miqdori yuqori gorizontlaridan quyi tomon koʻpayishi kuzatiladi. Bu tuproqlarning haydov qatlamida gumus miqdori 1,14-1,99% boʻlib, eng koʻp miqdorlari Yuqorichirchiq va Quyichirchiq tumanlari tuproqlariga tegishli (1,93 va 1,99%). Oʻrtachirchiq va Chinoz tumanlari tuproqlarining haydov qatlamida gumus miqdori, tegishlicha, 1,40 va 1,71%. Umumiy azot miqdori haydov va haydov osti qatlamlarida katta koʻrsatgichlarga ega boʻlib, gumus miqdori kabi quyi qatlamlarda kamaygan.

Chirchiq daryosi havzasi asosiy tuproqlarining fosforli holati deb nomlangan toʻrtchi bobida tadqiqotlarning birinchi bosqichida tuproqlar mineral fosfatlari guruhlarini Ginzburg-Lebedeva uslubida, ikkinchi bosqichida noorganik va organik fosfatlar Hedley uslubida aniqlanganligi koʻrsatilgan.

Ushbu bob uch paragrafdan iborat boʻlib, 1 va 2 paragraflar tuproq tiplariga bogʻliq ravishda bir necha boʻlimlarga ajratilgan.

Tuproqlar mineral fosfatlarining fraksiyaviy tarkibi (Ginzburg-Lebedeva uslubi) deb nomlangan paragrafida toʻq tusli boʻz tuproqlarining mineral fosfatlari asosan kalsiy fosfatlaridan iborat boʻlib, alyuminiy va temir fosfatlarining miqdori sezilarli darajada kamligi koʻrsatilgan. Kalsiy fosfatlari katta qismi yuqori asosli fosfatlardan (Ca-P_{III}) iborat, turli asosli fosfatlar (Ca-P_{II}) miqdori yuqori asosli fosfatlar miqdoridan sezilarli darajada kam, lekin, ularning miqdori boʻsh bogʻlangan fosfatlar (Ca-P_I) miqdoridan bir necha barobar koʻp.

Bu tuproqlarni oʻzlashtirish ularni boʻsh bogʻlangan, turli asosli va yuqori asosli fosfatlar miqdorining kamaytirgan. Temir va alyuminiy fosfatlari (Fe-P, Al-P) miqdorlari ham kamaygan.

Tipik bo'z tuproqlarda ham kalsiy fosfatlari ustunlik qilib, ular miqdori alyuminiy va temir fosfatlariga nisbatan ancha ko'p. Yuqori asosli fosfatlarning maksimal miqdorlari tuproqning yuqori gorizontlariga xos. Turli asosli fosfatlarning miqdori yuqori asosli fosfatlardan kam, lekin, bo'sh bog'langan fosfatlarga nisbatan ancha ko'p. Bo'sh bog'langan fosfatlarning maksimal miqdori yuqori gorizontlarga tegishli. Kalsiy fosfatlarining barcha fraksiyalari miqdori quyida kamayadi.

Lalmikor tuproqlarda yuqori asosli kalsiy fosfatlari miqdori qo'riqqa nisbatan kamaygan. Bo'sh bog'langan va turli asosli fosfatlarning umumiy miqdori esa oshgan.


Tipik bo'z tuproqlardan sug'orma dehqonchilikda foydalanish tuproq fosfatlarining barcha fraksiyalari miqdorini ko'paytiradi. Bu jarayonda bo'sh bog'langan va turli asosli kalsiy fosfatlari miqdori hamda kalsiy fosfatlarining harakatchanligi oshadi. Yuqori asosli kalsiy fosfatlari miqdori ham sezilarli darajada ko'payadi. Alyuminiy va temir fosfatlari fraksiyalari miqdori esa ancha kam.

Eskidan sug'oriladigan o'tloqi va bo'z-o'tloqi tuproqlarning mineral fosfatlari ham asosan kalsiy fosfatlaridan iborat. Bu tuproqlarda ham yuqori asosli fosfatlar miqdori turli asosli va bo'sh bog'langan fosfatlar miqdoridan ancha ko'p. Temir va alyuminiy fosfatlari miqdorlari kam. Yuqorichirchiq, O'rtachirchiq va Chinoz tumanlari o'tloqi tuproqlarining mineral fosfatlari miqdori bir-biriga yaqin, Quyichirchiq tumanining bo'z-o'tloqi tuprog'ida esa kalsiy fosfatlarining barcha fraksiyalari miqdori o'tloqilarga nisbatan sezilarli darajada kam.


Tuproqlar noorganik va organik fosfatlarining fraksiyaviy tarkibi (Hedley uslubi) paragrafida havzaning asosiy tuproqlari noorganik va organik fosfatlari fraksiyaviy tarkibi keltirilgan.

Jigarrang tuproqlarida umumiy fosfor miqdori hamda noorganik va organik fosfatlarining fraksiyaviy tarkibiga qiyalik ekspozitsiyasi ta'sir qiladi. Shimoliy qiyalik tuprog'ining chim va chim osti gorizontlarida umumiy fosfor miqdori, tegishlicha, 2654 va 2298 mg/kg, janubiy qiyalikda esa 1919 va 1716 mg/kg ni tashkil etib, shimoliy qiyalik tuprog'idagiga nisbatan ancha kam. Shimoliy qiyalikda organik fosforning umumiy fosfordagi ulushi chim va chim osti gorizontlarida, tegishlicha, 23,17 va 19,84 %, janubiy qiyalikda esa 18,92 va 17,37 %.

Labil ($H_2O\text{-}P_i+P_i$ va $NaHCO_3\text{-}P_o$) va cheklangan labil ($NaOH\text{-}P$) fosfor havzasi miqdori shimoliy ekspozitsiya tuproqlarida janubiy qiyalikdagiga nisbatan ko'p. Bu fraksiyalarda organik fosfor miqdori noorganik fosforiga nisbatan ustunlik qiladi. Shimoliy qiyalik tuproqlarida kalsiy bilan bog'langan ($1m\ HCl\text{-}P_i$), singdirilgan va okklyuziyalangan (kons. $HCl\text{-}P_i+P_o$) va ($H_2SO_4/H_2O_2\text{-}P$) fosfor miqdori janubiy qiyalikga nisbatan ancha yuqori (1 va 2-rasmlar).



1-rasm. Shimoliy ekspozitsiya jigarrang tuprog‘i noorganik va organik fosfatlari fraksiyaviy tarkibi




2-rasm. Janubiy ekspozitsiya jigarrang tuprog‘i noorganik va organik fosfatlari fraksiyaviy tarkibi

To‘q tusli bo‘z tuproqlar. Qo‘riq tuproqning chim va chim osti gorizontlarida umumiy fosfor miqdori, tegishlicha, 2448 va 2212,5 mg/kg, noorganik va organik fosforning umumiy fosfordagi ulushi esa, tegishlicha, 82,46 va 84,23; 17,54 va 15,77 % ni tashkil etdi. Labil fosforning umumiy miqdori, tegishlicha, 41 va 42,5 mg/kg. Tokzorlar o‘zlashtirilgan tuproqlarining haydov gorizontida umumiy fosfor 1970,5-1997 mg/kg, noorganik va organik fosfor ulushi, tegishlicha, 85,51-88,11% va 14,49-11,89%. Labil fosforning umumiy miqdori esa 37,0-40,5 mg/kg ni tashkil etadi.


Cheklangan labil fosforning umumiy miqdori qo‘riq tuproqning chim va chim osti gorizontlarida, tegishlicha, 132 va 104 mg/kg bo‘lib, bu havzada ham organik fosfatlar miqdori ko‘p. Tokzorlar tuproqlari haydov gorizontida 84 mg/kg ni tashkil etib, qo‘riq tuproqdagiga nisbatan kam. Kalsiy bilan bog‘langan fraksiyasi miqdori qo‘riq tuproqning chim va chim osti gorizontlarida, tegishlicha, 138 va 134 mg/kg ni, tokzorlar tuproqlari haydov gorizontida 148-162 mg/kg bo‘lib, bu tuproqlarda kalsiy bilan bog‘langan noorganik fosfor miqdori qo‘riqqa nisbatan ko‘proq (3-rasm).

Konsentrlangan HCl-Pi va HCl-Po fraksiyalarining miqdori qo‘riq tuproqning chimli gorizontida, tegishlicha, 36,5 va 315,5 mg/kg ni, chim osti gorizontida esa 35 va 247 mg/kg ni tashkil etib, bu havzada ham organik fosfor miqdori, noorganik fosforgia nisbatan ancha ko‘p. Tokzorlar tuproqlari haydov gorizontida konsentrlangan HCl-Pi va HCl-Po fraksiyalari miqdori, tegishlicha, 33-40,0 va 64-215 mg/kg ni tashkil etib, ular asosan organik shaklda saqlanadi. Ayni paytda tokzorlar tuproqlarida fraksiyalar bo‘yicha fosforning organik shakli miqdori kamayadi (4 va 5-rasmlar).


H₂SO₄/H₂O₂ fraksiyasi miqdori boshqa fraksiyalar miqdoriga nisbatan ancha ko‘p. Qo‘riq tuproqning chim va chim osti gorizontlarida, tegishlicha, 1785 va 1650 mg/kg, tokzorlar tuproqlarida esa, tegishlicha, 1450-1510 mg/kg bo‘lib, qo‘riq tuproqdagiga nisbatan sezilarli darajada kam.



3-rasm. Qo'riq to'q tusli bo'z tuproq noorganik va organik fosfatlari fraksiyaviy tarkibi



4-rasm. Zarkentsoy tokzori to'q tusli bo'z tuproqlari noorganik va organik fosfatlari fraksiyaviy tarkibi



5-rasm. Shampan tokzori to'q tusli bo'z tuproqlari noorganik va organik fosfatlari fraksiyaviy tarkibi


Sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar noorganik va organik fosfatlarining fraksiyaviy tarkibi. Bu tuproqlarni o'zlashtirilish davri umumiy fosfor miqdoriga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Parkent, Qibray, Zangiota va Yangiyo'l tumanlari eskidan sug'oriladigan tuproqlari haydalma qatlamida umumiy fosfor miqdori, tegishlicha, 2367, 2496, 2372 va 2447 mg/kg ni tashkil etgan bo'lsa, Yuqorichirchiq tumanining yangidan sug'oriladigan tuprog'ida 2079 mg/kg. Ya'ni, eskidan sug'oriladigan tuproqlarda umumiy fosfor miqdori, yangidan sug'oriladigan tuproqdagiga qaraganda ancha ko'p. Bu holatni eskidan sug'oriladigan tuproqlarda fosforli o'g'itlarni uzoq muddat davomida qo'llash natijasida tuproqda fiksatsiyalangan fosfor to'plangan deb tushintirish mumkin. O'rganilgan tuproqlarda umumiy fosfor miqdori kesma bo'ylab pastga qarab kamayadi.

Bu tuproqlarning haydalma gorizontlarida noorganik fosforning umumiy fosfordagi ulushi organik fosforning ulushiga nisbatan bir necha marta ko'p bo'lib, sug'orilish davri bu ko'rsatgichlarga kam ta'sir ko'rsatgan. Xususan, Parkent tumani tuprog'ida umumiy fosfordagi noorganik fosfor ulushi 89,18%, organik fosfor ulushi esa 10,82%, Qibray tumani tuprog'ida, tegishlicha, 89,78 va 10,22, Zangiota tuprog'ida 91,40 va 8,60, Yangi yo'l tuprog'ida 91,5 va 8,5% ni, Yuqorichirchiq tumani yangidan sug'oriladigan tuprog'ida, tegishlicha, 89,71 va 10,29 %ni tashkil etdi. Quyi gorizontlarda organik fosforning umumiy fosfordagi ulushi kamayadi, noorganik fosforning ulushi esa bir muncha oshadi. Bunda umumiy fosforning mutlaq miqdori quyi tomon sezilarli darajada kamayadi.


O'rganilgan tuproqlar haydalma gorizontida barqaror fosfor fraksiyalari (kons.HCl-P+P-H₂SO₄/H₂O₂) umumiy fosforning 79,4-84,8 % ni tashkil etadi. Kalsiy bilan bog'langan fosfor (1m HCl-P) 8,5-13,6%, temir bilan bog'langan fosfor 2,9-4,1%, kuchsiz sorbsiyalangan fosfor (NaHCO₃) 1,8-3,0% ini, tuproq erimasidagi fosfor (H₂O-Pi) miqdori esa 0,4-0,5 % ni tashkil etadi. Shu bilan birga NaHCO₃, NaOH va HCl kons. eritmalaridagi organik fosfor miqdori shu eritmalaridagi noorganik fosfor miqdoridan sezilarli darajada ko'p. Organik fosforning ancha miqdori (104-148 mg/kg) HCl kons. fraksiyasi tarkibida aniqlandi. NaHCO₃, NaOH fraksiyalarida esa uning miqdori, mos ravishda, 28-50 va 39-76 mg/kg ni tashkil etdi.

Sugʻoriladigan tipik boʻz tuproqlarda umumiy fosfor miqdori hamda turli fosfat havzalarida noorganik fosfatlar va organik fosfatlarning taqsimlanishiga sezilarli darajada farq qiladi. Masalan, oʻsimliklarni bevosita fosfor bilan taʼminlaydigan manba - labil fosfor ($H_2O\text{-Pi} + NaHCO_3\text{-Pi} + NaHCO_3\text{-Po}$) fraksiyalari summasi Parkent, Qibray, Zangiota va Yuqorichirchiq tumanlari tuproqlarining haydov gorizontida, tegishlicha, 73 mg/kg, 78 mg/kg, 74 mg/kg va 60 mg/kg ni tashkil etdi. Eng kichik koʻrsatgich (52 mg/kg) esa Yangi yoʻl tumani tuprogʻiga tegishli (6-10-rasmlar).


Eskidan sugʻoriladigan oʻtloqi tuproqlarning haydov gorizontidagi umumiy fosforning eng katta koʻrsatgichi oʻrta qumoq mexanik tarkibli va gumus miqdori eng koʻp (1,99 %) boʻlgan Quyichirchiq tumani tuprogʻida 2763 mg/kg ni tashkil etdi. Eng kichik koʻrsatgichlar 2359 va 2330,5 mg/kg boʻlib, tegishlicha, Oʻrtachirchiq (yengil qumoq mexanik tarkibli, gumus miqdori 1,4 %) va Chinoz (oʻrta qumoq quyida qum, gumus 1,71 %) tumanlarida kuzatildi. Yuqorichirchiq tumani yangidan sugʻoriladigan tuprogʻida (oʻrta qumoq, gumus 1,93 %) 2484 mg/kg ni tashkil etdi. Bu tuproqlar umumiy fosfori miqdoriga ularning mexanik tarkibi va gumus miqdori taʼsir koʻrsatdi.




6-rasm. Yuqorichirchiq tumani yangidan sugʻoriladigan tipik boʻz tuprogʻi noorganik va organik fosfatlari fraksiyaviy tarkibi




7-rasm. Parkent tumani eskidan sugʻoriladigan tipik boʻz tuprogʻi noorganik va organik fosfatlari fraksiyaviy tarkibi



8-rasm. Qibray tumani eskidan sugʻoriladigan tipik boʻz tuprogʻi noorganik va organik fosfatlari fraksiyaviy tarkibi



9-rasm. Zangiota tumani eskidan sugʻoriladigan tipik boʻz tuprogʻi noorganik va organik fosfatlari fraksiyaviy tarkibi



10-rasm. Yangi yoʻl tumani eskidan sugʻoriladigan tipik boʻz tuprogʻi noorganik va organik fosfatlari fraksiyaviy tarkibi

Quyichirchiq tumani tuprogʻida umumiy fosforning 85,96 %ni noorganik fosfatlar, 14,04 % ini organik fosfatlar tashkil etdi. Oʻrtachirchiq va Chinoz tumanlari tuproqlarida, tegishlicha, 91,56 va 8,44; 91,55 va 8,45 % dan iborat boʻlib, organik fosfor miqdori eng kichik koʻrsatgichlarga ega. Yuqorichirchiq tumani tuprogʻida esa, mos ravishda, 89,94 va 10,06 % ni tashkil etdi.


Quyichirchiq va Yuqorichirchiq tuproqlarining haydov gorizontida labil fosfor ($H_2O\text{-Pi} + \text{Pi}$ va Po-NaHCO_3) miqdori, tegishlicha, 63 va 66 mg/kg boʻlib,

O'rtachirchiq va Chinoz tuproqlaridagi miqdoridan (46 va 46,5 mg/kg) sezilarli darajada ko'p.


Yuqorichirchiq, O'rtachirchiq va Chinoz tumanlari tuproqlarining haydov gorizontlarida cheklangan labil (NaOH-Pi va NaOH-Po) fraksiyalarining umumiy miqdori, tegishlicha, 108, 94 va 96 mg/kg ni tashkil etib, Quyichirchiq tumani tuprog'i tarkibidagi miqdoriga (102 mg/kg) yaqin, lekin bu tuproqda NaOH-Pi+NaOH-Po dagi noorganik fosforning ulushi boshqa tumanlardagiga qaraganda ko'proq.

1m HCl-Pi (kalsiy bilan bog'langan fosfor) fraksiyasi miqdori Yuqorichirchiq tumani tuprog'ida 288 mg/kg dan iborat bo'lib, eng yuqori ko'rsatgichni, O'rtachirchiq tumani tuprog'ida 228 mg/kg bo'lib, eng kichik ko'rsatgichni tashkil etdi. Quyichirchiq (252 mg/kg) va Chinoz (260 mg/kg) tumanlari tuproqlarida esa o'rtacha qiymatga ega.


Konsentrlangan HCl-Pi va HCl-Po fraksiyalarining eng ko'p miqdori Quyichirchiq tumani tuprog'iga tegishli bo'lib, 336 mg/kg ni tashkil etdi. Bu fraksiya tarkibidagi noorganik fosfatlar miqdori 39 mg/kg, organik fosfatlar miqdori esa 297 mg/kg dan iborat. Boshqa o'rganilgan tuproqlar haydov gorizontida bu fraksiya miqdori 192-198 mg/kg oralig'ida bo'lib, ularning asosiy qismini organik fosfatlar tashkil etdi. H₂SO₄ / H₂O₂ fraksiyasining eng ko'p miqdori ham Quyichirchiq tumani tuprog'ida aniqlandi. Boshqa o'rganilgan tumanlar tuproqlari haydov gorizontlarida H₂SO₄ / H₂O₂ fraksiyasi miqdori 1730-1830 mg/kg oralig'ida tebrandi (11-14-rasmlar).




